

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No1
MAXSUS SON

2026

YANVAR



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

**BAKALAVR
TALABALARINIG
MAQOLALARI
TO'PLAMI**

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 22 sahifa,
yanvar, 2026-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellash
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimonshunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA MOLIYAVIY VOSITACHILARNING AHAMIYATI.....	8
Sattorova Mehriniso Komil qizi, Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРНОГО ТУРИЗМА В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ.....	11
Уракулов Аббос Жасур угли, Сафарова Сабина Сирожиддиновна, Санакулов Шахзод Мансур угли, Саттарова Зухра Илхомовна	
TIJORAT BANKLARIDA KAPITAL SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	17
Karimov Diyor Umidjon o'g'li, Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	



TIJORAT BANKLARIDA KAPITAL SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Karimov Diyor Umidjon o'g'li

“Fan va texnologiyalar universiteti” talabasi
diyorkarimov81782024@icloud.com

Ilmiy rahbar:

Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li

“Fan va texnologiyalar” universiteti
“Moliya va moliyaviy texnologiyalar” kafedrası o'qituvchisi
elldor96@gmail.com
ORCID: 0009-0000-9661-9884

Annotatsiya: Mazkur maqolada tijorat banklarida kapital samaradorligini oshirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida bank kapitalining iqtisodiy mohiyati, uning samaradorligini baholash ko'rsatkichlari hamda kapitaldan foydalanish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilindi. Tadqiqotda 2021–2023-yillar bo'yicha tijorat banklarining moliyaviy ko'rsatkichlari asosida empirik tahlil amalga oshirildi. Kapital samaradorligini baholashda kapital rentabelligi, aktivlar rentabelligi va kapital yetarliligi koeffitsiyentlaridan foydalanildi. Olingan natijalar tijorat banklarida aktivlar sifati, risklarni boshqarish tizimi hamda daromadli aktivlar ulushini oshirish kapital samaradorligini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, bank kapitali, kapital samaradorligi, kapital yetarliligi, bank rentabelligi, risklarni boshqarish.

Abstract: This article examines the issues of improving capital efficiency in commercial banks. The study analyzes the economic essence of bank capital, key indicators for assessing capital efficiency, and the factors influencing the effective use of capital. An empirical analysis was conducted based on the financial indicators of commercial banks for the period 2021–2023. Capital efficiency was assessed using return on equity, return on assets, and the capital adequacy ratio. The results show that asset quality, effective risk management systems, and an increase in income-generating assets play a crucial role in enhancing capital efficiency in commercial banks.

Keywords: commercial banks, bank capital, capital efficiency, capital adequacy, bank profitability, risk management.

Аннотация: В данной статье исследуются вопросы повышения эффективности использования капитала в коммерческих банках. В ходе исследования проанализированы экономическая сущность банковского капитала, показатели оценки его эффективности, а также факторы, влияющие на результативность использования капитала. Эмпирический анализ проведён на основе финансовых показателей коммерческих банков за 2021–2023 годы. Для оценки эффективности капитала использовались показатели рентабельности капитала, рентабельности активов и коэффициент достаточности капитала. Полученные результаты свидетельствуют о том, что качество активов, система управления рисками и увеличение доли доходных активов играют ключевую роль в повышении эффективности капитала коммерческих банков.

Ключевые слова: коммерческие банки, банковский капитал, эффективность капитала, достаточность капитала, банковская рентабельность, управление рисками.

KIRISH

Zamonaviy bank tizimida tijorat banklarining barqaror faoliyat yuritishi, moliyaviy xavfsizligi va raqobatbardoshligi bevosita ularning kapital yetarliligi hamda kapitaldan samarali foydalanish darajasiga bog'liq. Bank kapitali moliyaviy xatarlarni qoplash, depozitorlar manfaatlarini himoya qilish va kreditlash hajmini kengaytirish uchun asosiy manba hisoblanadi. Shu sababli tijorat banklarida kapital samaradorligini oshirish masalasi bank menejmentining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda [1].

Global moliyaviy inqirozlar tajribasi bank kapitalining yetarli bo'lishi bilan bir qatorda undan oqilona va samarali foydalanish zarurligini ko'rsatdi. Ayniqsa, Bazel III talablarining joriy etilishi bank kapitaliga nisbatan talablarni kuchaytirdi va kapital samaradorligini oshirish mexanizmlarini izlashni dolzarb masalaga aylantirdi [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda bank kapitali va uning samaradorligi masalasi keng yoritilgan. Masalan, Rose va Hudgins bank kapitalini bank barqarorligining asosiy omili sifatida baholab, kapital rentabelligi ko'rsatkichlari bilan uning bevosita bog'liqligini ta'kidlaydi [3]. Mishkin esa bank kapitalining yetarliligi kredit risklarini kamaytirish hamda moliyaviy tizim barqarorligini ta'minlashdagi rolini alohida qayd etadi [4].

O'zbekistonlik olimlardan Sh. Abdullayev tijorat banklarida kapital samaradorligini oshirishda aktivlar sifati va risklarni boshqarish tizimining ahamiyatini asoslab bergan [5]. Shuningdek, I. Karimov bank kapitalining yetarlilik ko'rsatkichlari va bank rentabelligi o'rtasidagi bog'liqlikni empirik tahlil asosida yoritgan [6].

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda kapital samaradorligini oshirishning amaliy mexanizmlari, xususan, kapital tuzilmasini optimallashtirish hamda riskka moslashtirilgan aktivlarni boshqarish masalalari yetarlicha chuqur tahlil qilinmagan.

Shuningdek, xalqaro tadqiqotlarda bank kapitali samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar qatorida aktivlar portfelining tarkibi, daromad keltiruvchi aktivlar ulushi hamda xarajatlarni optimallashtirish masalalari alohida ta'kidlanadi. Bir qator empirik ishlarda bank rentabelligi ko'rsatkichlari (ROE va ROA) kapital yetarliligi bilan bog'liq holda baholanib, kapitalning haddan tashqari yuqori darajada shakllanishi qisqa muddatda rentabellikni pasaytirishi, biroq uzoq muddatda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashi mumkinligi qayd etiladi. Shu bilan birga, banklar faoliyatida kapitallashtirish darajasi va riskni qabul qilish darajasi o'rtasidagi muvozanatni saqlash kapital samaradorligini oshirishning muhim sharti sifatida ko'rsatiladi.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda bank kapitali samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalar hamda zamonaviy risk-menejment yondashuvlarining o'rnini ortib bormoqda. Xususan, kredit portfeli sifatini monitoring qilish, muammoli kreditlarni erta aniqlash, stress-testlarni muntazam o'tkazish hamda kapitalga bo'lgan ehtiyojni prognozlash jarayonlarida analitik modellar va raqamli platformalardan foydalanish kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklarida kapital samaradorligini ta'minlash nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlar bilan, balki boshqaruv tizimi sifati, risklarni boshqarish amaliyoti va nazorat mexanizmlarining rivojlanganligi bilan ham chambarchas bog'liqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot tijorat banklarida kapital samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlash va baholashga qaratilgan bo'lib, unda sifat hamda miqdoriy tahlil usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus iqtisodiy tahlil metodlari qo'llanildi.

Avvalo, bank kapitali va uning samaradorligini tavsiflovchi nazariy qarashlar tizimli tahlil hamda mantiqiy umimlashtirish usullari asosida o'rganildi. Ushbu bosqichda yetakchi xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari, xalqaro moliya institutlari hamda Bazel qo'mitasi hujjatlari tahlil qilindi [1; 3; 5].

Tadqiqotning empirik qismida tijorat banklarining 2021–2023-yillar bo'yicha moliyaviy hisobotlari asosida statistik tahlil amalga oshirildi. Kapital samaradorligini baholash uchun kapital rentabelligi (ROE), aktivlar rentabelligi (ROA) va kapital yetarliligi koeffitsiyenti (CAR) asosiy indikatorlar sifatida tanlandi [4; 7].

Kapital samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda taqqoslash, guruhlash hamda dinamik qatorlar tahlili usullaridan foydalanildi. Shuningdek, kapital samaradorligi va aktivlar sifati, risklarni boshqarish darajasi hamda operatsion xarajatlar o'rtasidagi bog'liqlik korrelyatsion tahlil elementlari yordamida baholandi [6; 8].

Ma'lumotlarni qayta ishlash va vizualizatsiya qilish jarayonida jadvallar hamda diagrammalar tuzildi. Bu esa olingan natijalarni yanada aniq va tushunarli tarzda ifodalash imkonini berdi. Tadqiqot natijalari asosida umimlashtirish va induksiya usullari orqali xulosalar shakllantirildi hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Mazkur metodologik yondashuv tijorat banklarida kapital samaradorligini oshirish yo'llarini har tomonlama tahlil qilish va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur bo'limda tijorat banklarida kapital samaradorligi darajasini aniqlash hamda uni oshirish imkoniyatlarini baholash maqsadida 2021–2023-yillar bo'yicha moliyaviy ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Tadqiqot doirasida kapital samaradorligini ifodalovchi asosiy indikatorlar sifatida kapital rentabelligi (ROE), aktivlar rentabelligi (ROA) va kapital yetarliligi koeffitsiyenti (CAR) tanlandi. Ushbu ko'rsatkichlar bank kapitalidan



foydalanish samaradorligi, aktivlar portfelining daromadlilik darajasi hamda bankning moliyaviy barqarorligini baholashda eng muhim mezonlardan hisoblanadi.

Tahlil natijalarini yanada aniqroq ifodalash maqsadida 1-jadvalda tijorat banklarining 2021–2023-yillardagi kapital samaradorligi ko'rsatkichlari keltirildi. Mazkur jadval asosida banklar faoliyatida kapitaldan foydalanish samaradorligi dinamikasi, rentabellik darajasidagi o'zgarishlar hamda prudensial me'yorlarga muvofiqlik holati baholandi. Olingan natijalar bank kapitalidan oqilona foydalanish, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish va daromadli aktivlar ulushini oshirish kapital samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatdi.

1-jadval. Tijorat banklarida kapital samaradorligi ko'rsatkichlari (2021–2023 yy.)¹

Ko'rsatkichlar	2021 yil	2022 yil	2023 yil
ROE (%)	18,2	20,1	22,4
ROA (%)	1,9	2,1	2,4
CAR (%)	15,3	16,0	16,8

Jadval ma'lumotlari 2021–2023-yillar davomida tijorat banklarida kapital samaradorligi ko'rsatkichlarining barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatadi. Xususan, kapital rentabelligi (ROE) 2021-yildagi 18,2 foizdan 2023-yilda 22,4 foizgacha oshgan bo'lib, bu bank kapitalidan foydalanish samaradorligi hamda aksiyadorlar uchun daromadlilik darajasining ortganini anglatadi. Mazkur holat banklar tomonidan resurslardan oqilona foydalanilayotganini va foyda keltiruvchi operatsiyalar ulushi oshayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, aktivlar rentabelligi (ROA) ko'rsatkichining 1,9 foizdan 2,4 foizgacha o'sishi bank aktivlarining daromad keltirish qobiliyati yaxshilanayotganidan dalolat beradi. Bu esa kredit portfeli sifati hamda bank aktivlarining samarali joylashtirilishi bilan bog'liq.

Kapital yetariligi koeffitsiyentining (CAR) 15,3 foizdan 16,8 foizgacha oshishi tijorat banklarining xalqaro prudensial me'yorlar, jumladan Bazel III talablariga mos ravishda faoliyat yuritayotganini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkichning oshishi banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, risklarni qoplash imkoniyatlarini kengaytirish va ishonchlilik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Tahlil natijalariga ko'ra, tijorat banklarida kapital samaradorligini oshirishning asosiy yo'llari quyidagilardan iborat:

- riskka moslashtirilgan aktivlarni optimallashtirish;
- muammoli kreditlarni qisqartirish;
- kapital tuzilmasini diversifikatsiyalash;
- raqamli bank xizmatlarini kengaytirish orqali operatsion xarajatlarni kamaytirish;
- daromad keltiruvchi aktivlar ulushini oshirish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur ilmiy maqolada tijorat banklarida kapital samaradorligini oshirish masalalari nazariy va empirik jihatdan kompleks tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida bank kapitalining iqtisodiy mohiyati, uning moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni hamda kapital samaradorligini baholash ko'rsatkichlari chuqur o'rganildi. Ilmiy adabiyotlar sharhi bank kapitali va bank rentabelligi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini, shuningdek, kapital samaradorligini oshirish bank faoliyatining barqaror rivojlanishida muhim omil ekanligini ko'rsatdi.

Empirik tahlil natijalari 2021–2023-yillar davomida tijorat banklarida kapital rentabelligi (ROE), aktivlar rentabelligi (ROA) hamda kapital yetariligi koeffitsiyenti (CAR) ko'rsatkichlarining barqaror o'sish tendensiyasiga ega ekanligini aniqladi. Ushbu holat banklar tomonidan kapital resurslaridan oqilona foydalanilayotganini, aktivlar sifati yaxshilanayotganini va prudensial talablar doirasida moliyaviy barqarorlik ta'minlanayotganini tasdiqlaydi. Xususan, kapital yetariligi koeffitsiyentining xalqaro standartlardan yuqori darajada shakllanishi bank tizimining risklarga bardoshlilikini oshirishga xizmat qilmoqda.

Tahlil davomida kapital samaradorligiga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida aktivlar sifati, risklarni boshqarish tizimining samaradorligi, daromad keltiruvchi aktivlar ulushi hamda operatsion xarajatlar darajasi aniqlandi. Ayniqsa, muammoli kreditlar ulushini kamaytirish va kredit portfeli sifatini yaxshilash bank kapitalining samarali ishlatilishida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi asoslab berildi. Shu bilan birga, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish orqali operatsion xarajatlarni qisqartirish kapital rentabelligini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligi aniqlandi.

1 Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [7].



Tadqiqot natijalari asosida tijorat banklarida kapital samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi. Jumladan, riskka moslashtirilgan aktivlarni optimallashtirish, kapital tuzilmasini diversifikatsiyalash, muammoli kreditlarni qisqartirish, daromadli aktivlar ulushini oshirish hamda zamonaviy bank texnologiyalarini joriy etish bank kapitalidan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Tijorat banklarida kapital samaradorligini oshirish nafaqat banklarning moliyaviy natijalarini yaxshilash, balki butun bank tizimining barqarorligi va ishonchligini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot natijalari bank menejerlari, moliya sohasi mutaxassislari hamda ilmiy tadqiqotchilar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: A global regulatory framework. – Basel: Bank for International Settlements (BIS), 2019.
2. Gorton, G. Slapped by the Invisible Hand: The Panic of 2007. – Oxford: Oxford University Press, 2012.
3. Rose, P.S., Hudgins, S.C. Bank Management & Financial Services. – New York: McGraw-Hill Education, 2018.
4. Mishkin, F.S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. – Boston: Pearson, 2019.
5. Abdullayev, Sh. Bank ishi: darslik. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2020.
6. Karimov, I. Tijorat banklarida kapital yetarliligi va rentabellik o'rtasidagi bog'liqlik // Moliya va bank ishi jurnali. – 2021. – № 1. – B. 45–52.
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklari moliyaviy ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar. – Toshkent, 2023.
8. Saunders, A., Cornett, M. Financial Institutions Management: A Risk Management Approach. – New York: McGraw-Hill Education, 2020.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

1-Maxsus son.

Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100